

Fan platformasi		
Fanning to'liq nomi: BRENDNI BOSHQARISH		
Fan kodi: BRB3510	Fanga ajratilgan kreditlar (ECTS): 4/6	davomiyligi: 2 semestr
Kafedra: Sanoat iqtisodiyoti va menejmenti		
Fan qaysi yo'nalish talabalari uchun: Menejment (kimyo va oziq-ovqat sanoati) va Marketing (kimyo va oziq-ovqat sanoati)		
Fan ma'ruza o'qituvchisi: Toxirov Akbarxon Toirxon o'g'li		
Fanga ajratilgan umumiy soatlar: 300	Email: phdakbar90@gmail.com	
Fan seminar mashg'ulotlari o'qituvchisi(lari): Toxirov Akbarxon Toirxon o'g'li		
Prerekvizitlar: Kimyo sanoati va Tanlov turi: majburiy fan umum ta'lim kadrlarni tayyorlash		
<p>Fanning qisqacha bayoni: “Brendni boshqarish” fani mutaxassislik fanlar blokiga kiritilgan kurs hisoblanib, 3-kursda o'qitilishi maqsadga muvofiq. Mazkur fan iqtisodiy fanlar turkumiga kiradi. Fanni puxta o'zlashtirish nazariy materiallarni bilish bilan birga, talabalarning mutaxassislik va ishlab chiqarish amaliyoti davrida va universitetni bitirgandan keyingi ishlarda ko'nikma sifatida xizmat qiladi.</p>		

Fanning maqsadi: “Brendni boshqarish” fani ichki va tashqi bozorlarda zamonaviy marketing faoliyatini amalga oshirishni, xalqaro bozorlarda narxini shakllanish mexanizmlarini va bozor sub'ektlarining tashqi iqtisodiy faoliyatini tashkil etishni o'rganadi.

“Brendni boshqarish” fani korxonalar tashqi iqtisodiy faoliyatida marketingning nazariy va amaliy tomonlarini o'rganish bilan birga, tashqi bozorlarga chiqish usullari orqali amaliyotda vujudga keladigan muammolarni tahlil qilishda va ularning yechimini topishda, shuningdek, sababiy bog'liqlikda xulosalar yasashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu fan umumkasbiy fanlardan hisoblanib, boshqa iqtisodiy fanlarni chuqur o'rganishda asos bo'lib xizmat qiladi.

Fan yakunida talabalar quyidagi malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishadi:

➤ branding bo'yicha asosiy tushunchalar; brendni boshqarishning nazariy asoslari; brendni boshqarish tamoyillari; zamonaviy marketingda brend texnologiyalar; tovar markasi va brendning iqtisodiy mohiyati; brend tizimi va uning asosiy elementlari; milliy brendlar; brend-menejmentning ahamiyati; brend texnologiyalarni ishlab chiqish va amalga oshirish strategiyalari to'g'risida tasavvurga ega bo'lishi; brendlarni boshqarish nazariyalari va uslublarini;

➤ brendlarni tasniflash va aniqlashni; yangi brendlarni boshqarish va siljitish bo'yicha loyihalarni shakllantirishni;

➤ brendlarni oshqarishda marketing tadqiqotlarining zamonaviy texnologiyalarini qo'llashni bilishi va ulardan foydalana olishi; brendni boshqarishda tahlil qilish, kreativ va innovatsion uslublarni amaliyotda qo'llash; brend yaratish texnologiyalarini qo'llash; brend modelini yaratish va uni brendni boshqarishda qo'llash;

➤ brend kapitalini baholash usullarini qo'llash; brend konsepsiyasini ishlab chiqish va brendni boshqarish; brendni boshqarish siyosati yuritish va marketing strategiyalarini ishlab chiqish ko'nikmalariga ega bo'lishi. Ma'ruza mashg'ulotlari

Ma'ruza mashg'ulotlari katta sig'imli, multimedia qurilmalari bilan jihozlangan o'quv

auditoriyalarida olib boriladi.

Amaliy mashg'ulotlar

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada har bir akademik guruhga alohida o'tiladi. Mashg'ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o'tiladi, "Keys-stadi" texnologiyasi ishlatiladi. Ko'rgazmali materiallar va axborotlar multimedia qurilmalari yordamida uzatiladi. Shuningdek, mavzudan kelib chiqib dars mashg'uloti mehmonxonada sayyor dars tarzida olib boriladi.

Mustaqil ta'lim

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan taqdimotlar, guruh bilan ishlanmalar, referatlar tayyorlanadi.

№	Fan mavzulari	Ma'ruza soatlar hajmi	Amaliy mashg'ulot soatlar hajmi	Mustaqil ta'lim soatlari
1	"Brendni boshqarish" faniga kirish. Brend haqida tushuncha va brendlarni tasniflanishi	4	8	18
2	Brendni boshqarishda marketing tadqiqotlari	4	8	18
3	Brendni tayyorlov bosqichi	4	8	18
4	Brendni loyihalashtirish bosqichlari. Brendning tarkibiy qismlari	4	8	18
5	Brendning huquqiy asoslari	4	8	18
6	Brend arxitekturasi	4	8	18
7	Brendga moyillik va uni boshqarish	6	8	18
8	Birlashtirilgan brending	6	8	18
9	Brend kapitali	6	4	18
10	Globallashuv sharoitida brendlarni siljitish va ularni boshqarish	6	4	18
Jami		48	72	180

Asosiy adabiyotlar

1. G.Xamdamova, O.Jumayev. Menedjment.Marketing. Darslik. Toshkent-2017. 460 b.
2. Sh.Dj.Ergashodjayeva. Strategik marketing. Darslik. Toshkent-2014. 240 b.

Qo'shimcha adabiyotlar

3. SH.M.Mirziyoev Buyuk kelajagimiz ni mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz., 2017.
4. SH.M.Mirziyoev Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash-yurt taraqqiyoti va halq farovonlining garovi. 2017.
5. SH.M.Mirziyoev Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. 2017 y
6. Den S. Kennedi. Jestkiy brend-bilding. Izd.: Alpina pabliher, 2017.-290 str.